Аннотация *В статье системно рассматривается лексический уровень языка на основе трёх основных принципов – морфологического, семантического и стилистического критериев. Анализируется природа, сфера употребления и функциональные особенности ограниченной лексики (диалектизмы, специальная лексика – жаргон, арго, термины – а также архаичные и устаревшие единицы) на примере узбекского и английского языков. В качестве исследовательской базы использованы теоретическая литература по теме, толковые словари и реальные речевые образцы; в качестве методов анализа применены описательный, сравнительный и компонентный подходы. Результаты показывают, что границы между группами в лексической системе динамичны, и наряду с социальными и региональными факторами сильное влияние на реализацию лексических единиц оказывают также стилистические требования.*

Ключевые слова *Лексический уровень, лексическая система, морфологическая классификация, лексико-семантическая парадигма, лексико-семантическое поле, стилистическая классификация, прагматика, диалектизм, жаргон, арго, термин, архаизм, устаревшая лексика, узбекский язык, английский язык*

Lexical level and restricted vocabulary: dialectisms, specialized vocabulary, and archaisms (on the example of Uzbek and English languages)

Sobirova Zarnigor Rakhimovna

z.r.sobirova@buxdu.uz

Doctor of Philosophy in Philology,

Associate Professor,

Bukhara State University

Annotation

The article systematically examines the lexical level of language on the basis of three main principles – morphological, semantic, and stylistic criteria. The nature, scope of use, and functional characteristics of restricted vocabulary (dialectisms, specialized vocabulary – jargon, argot, terms – as well as archaic and obsolete units) are analyzed through the examples of Uzbek and English languages. The research relies on theoretical literature, explanatory dictionaries, and authentic speech samples; the descriptive, comparative, and componential approaches were integrated as the methods of analysis. The results demonstrate that the boundaries between groups in the lexical system are dynamic, and that stylistic requirements, alongside social and regional factors, exert a strong influence on the realization of lexical units.

Key words

Lexical level, lexical system, morphological classification, lexical-semantic paradigm, lexical-semantic field, stylistic classification, pragmatics, dialectism, jargon, argot, term, archaism, obsolete vocabulary, Uzbek language, English language

Kirish

Tilshunoslikda leksik tizimni tavsiflash va tasniflash masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda; bu masalalar so'zlarning morfologik tuzilishi, semantik munosabatlari, uslubiy-pragmatik xossalari hamda ularning qo'llanish doirasini izchil aniqlashni talab etadi (Saussure, 1959; Lyons, 1977). Struktur yondashuv doirasida binar ziddiyatlar, paradigmalar va maydonlar konsepsiyasi so'zlarning tizim ichidagi o'rnini belgilashga xizmat qiladi (Bloomfield, 1933; Cruse, 2000). Shu bilan birga, ijtimoiy-hududiy omillar (dialekt va sotsiolekt), faoliyat sohasi (kasbiy terminologiya), nutq uslubi va tarixiy taraqqiyot (arxaiklashuv) leksik birliklarning qo'llanishini chegaralaydi (Crystal, 2008; Trask, 1999).

Tilshunoslik qarshisidagi dolzarb vazifalardan biri leksik tizim tarkibi, taraqqiyot tendensiyalari, elementlarning o'zaro aloqasini muntazam ravishda tahlil qilishdan

iborat. Zotan leksik sath akkumulyativ, kommunikativ funksiyalarni o'zida mujassam etgan asosiy lisoniy platformadir. Shuningdek, aynan leksik sath tilning dinamik xarakterini maksimal darajada namoyon etadi – tizimga yangi elementlar qo'shilishi va ayrim leksemalar iste'moldan chiqishi til jonli, ijtimoiy hodisa ekanini asoslaydi. Tarkibdagi elementlarni turli nuqtayi nazardan tasniflash sistem-struktur yondashuvning asos ustunligidir. Bunda tasnif uchun olingan umumiy ko'rsatkich elementlar tabiatini ochib berish bilan birga butun tizimdagi o'rnini namoyon qilish vositasida tizimning o'zini ham tavsiflaydi. Zamonaviy nazariy tilshunoslikda ham asos tadqiq obyektni elementlar tizimi deb qarash, bu tizimni turli struktur elementlarga ajratish, har bir elementga xos semantik, funksional, uslubiy, pragmatik jihatlarni aniqlash masalalari aktual qolmoqda.

Tilshunoslikka struktur yondashuv asosida binar ziddiyat tushunchasini olib kirgan Ferdinand De Sossyur har bir til elementi shaklan va mazmunan zid sherigiga egaligini ta'kidlaydi (Coccop, 1977). Ziddiyat tovush tizimida *jarangli-jarangsiz, unli-undosh* kabi juftliklarda namoyon bo'lgani holda morfologiyada bu mustaqil va nomustaqil so'z turkumlari, grammatik kategoriyalar, so'z yasovchi hamda shakl yasovchi kabi juftlarda mavjud. Lison o'z tabiatiga ko'ra shakl va mazmun binarliligi ustiga quriladi. Tizimdagi har bir elementda mana shu ikki qutb in'ikosi, mazmun va shakl uyg'unligi aniqlanadi. Funktsional jihatdan leksemalar an'anaviy tilshunoslikda mustaqil va yordamchi turkumlarga klassifikatsiya qilinadi. Hozirda bu tasnif sirasida oraliq turkum mavjudligi ta'kidlanadi. Morfologik klassifikatsiya leksemalarni turkumlarga ajratib, har bir turkumga oid kategoriyalarni belgilashdan iboratligi ma'lum.

Tillar klassifikatsiyasi ham morfologik tamoyil asosida o'zak til, affiksial til, flektiv va agglyutinatativ turlarga ajratiladi. Ichki va tashqi fleksiya asosida grammatik shakllar hosil qiluvchi ingliz tilida ham, morfema va affikslar vositasida so'z shakllari, grammatik shakllar hosil qiluvchi o'zbek tilida ham mustaqil so'z turkumlari standart ot, sifat, fe'l, ravish, son va olmoshdan tarkib topadi. Tilning morfologik qurilishi qanday bo'lishidan qat'iy nazar ushbu struktura so'z turkumlari soniga ta'sir o'tkazolmaydi.

Asosiy semik komponent (gipersema)ga ko'ra so'zlarni guruhlash leksik-semantik paradigma asosini hosil qiladi. Leksik-semantik maydonlar sof milliy – bir tilga xos realiyalardan tarkiblanishi yoki umumbashariy tushunchalarni ifodalovchi universalialar bo'lishi mumkin (Плоткин, 1989). Morfologik tasnifdan farqli o'laroq leksik-semantik klassifikatsiya jonli, dinamik xarakter kasb etadi. Maydon tarkibiga yangi elementlar qo'shilishi va eskilarining chiqib ketishi, vaqt o'tib so'zlarga yangi ma'no yuklanishi, ma'no siljishi kabi xodisalar leksik-semantik

paradigmalar o'zgaruvchanligidan dalolat beradi.

Leksemalarni qo'llanish doirasiga ko'ra tasniflash uslubiy tamoyil bo'lib, bunda leksemalar rasmiy, norasmiy, ilmiy, badiiy nutqiy doirada qo'llanishiga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Ayrim faol chastotali leksemalar esa qo'llanish doirasi chegaralanmagan uslubiy guruhni hosil qiladi (Ferrer, 2001).

Tilning leksik sathini morfologik, semantik va uslubiy tasniflashdan tashqari pragmatik, davriy, chastotali ajratish tamoyillari tilshunoslikda asoslangan. Klassifikatsiya tilning leksik materialini turli nuqtayi nazardan tartiblash, tizimlashtirish, iyerarxiyani shakllantirish, undagi elementlarning o'zaro funksional, semantik va boshqa aloqalarini aniqlash asosini tashkil etadi.

Leksik material voqelanishiga ko'ra umum qo'llanishdagi elementlar va qo'llanishi chegaralangan plastga ajraladi. Umumqo'llanishdagi so'zlar kishilarning kasbi, ijtimoiy kelib chiqishi va boshqa farqli jihatlaridan qat'iy nazar barchaga birdek tushunarli, kundalik og'zaki va yozma nutqda keng qo'llanuvchi leksemalar demakdir. Bunday so'zlar sirasiga barcha tillardagi son, olmosh kabi mustaqil so'z turkumlari va nomustaqil turkumga oid aksariyat leksik birliklar kiradi. Chegaralangan leksika esa hududiy, kasbiy, davriy va boshqa qator belgilarga ko'ra nutqiy doirada cheklangan voqelanish ko'rsatkichiga ega. Tilshunoslikda chegaralangan leksikaning quyidagi turlari ajratiladi:

- 1) Dialektizmlar (shevaga xos leksik birliklar);
- 2) Maxsus leksika (jargon, argo, terminlar);
- 3) Arxaik va eskirgan leksika.

Sheva yoki dialektga mansub leksik birliklar hududiy cheklangan xarakterga ega. Muayyan hudud shevasida mavjud leksemalar adabiy til me'zonlaridan farqlanib, ushbu farqqa leksikografik manbalarda ham ishora qilinadi. Zamonaviy o'zbek tilining shevalari qipchoq, qarluq, o'g'uz lahjarida guruhlanishi ma'lum. Ingliz tili lahjalari keng geografik

arealni tashkil qilib, bir lahja butun mamlakat hududini qamrashi mumkin. Masalan, Buyuk Britaniyadagi til talaffuz normasi, leksik tarkibi Qo'shma Shtatlardagidan sezilarli darajada farqlanadi. Qamrov areali qanday bo'lishidan qat'iy nazar shevaga xos leksemalarni etnografik dialektizm hamda semantik dialektizmga ajratish kerak. Etnografik dialektizmlar adabiy tilda ekvivalentga ega bo'lmagan leksemalar guruhi bo'lsa, semantik dialektizmlar mazmuni adabiy tildagi ma'nodan farqlanuvchi so'zlardir (Enazarov, 2021). Ya'ni dialektizmlar ham o'z ichida binar tamoyil asosida tasniflanib, leksemalar semantik va etnografik ko'rsatkichga ko'ra ajraladi. Dialektlar shakllanishiga hududiy izolyatsiya, muayyan ijtimoiy omillar hamda tarixiy ekstralinvistik ta'sirlar sabab bo'ladi – chegaralangan leksika sifatida dialektizmlarni tadqiq etishda ushbu omillarni inobatga olish shart. Shevalarda turli tushunchalar paydo bo'lishi, mavjud so'zlarning adabiy tildan farqli ma'no kasb etishida hududiy ajralganlik omilining xizmati katta. Xususan, o'zbek tilining uch yirik lahjasi ham aynan tarixiy-hududiy chegaralar bilan yaqqol ajralgan. Bundan tashqari turli ijtimoiy sinflar nutqida ham tafovutlar mavjud, shevalardagi sinfiy farqlanish ingliz tilida kuzatiladi. Ingliz tilida sof kibor dialekt, o'rta sinf va quyi sinf nutqi o'ziga xos talaffuz me'yorlari hamda leksik tarkibga ega. Mustamlaka davrlari, xalqlar ko'chishi, qo'shni va qo'shni bo'lmagan davlatlar bilan turli jabhalardagi aloqalar jonli tilda albatta iz qoldiradi (Auer, 2005). Lahja va shevalar har bir til tizimida dolzarb o'rin tutadi – ushbu material tadqiqi til evolyutsiyasi, tarixiy negizlari, rivojlanish tendensiyasi va trayektoriyasini anglash imkonini beradi.

Dialektizmlardan farqli holda maxsus leksika hududiy chegaralarga ega emas. Leksik sathning ushbu plasti terminlar, professionalizmlar hamda jargonizmlar kabi paradigmalardan hosil bo'ladi. Har bir maydon muayyan belgisiga ko'ra farqlanadi va shu belgi asosida izohlanadi. Masalan, "terminlar – o'ziga xos ma'nosiga ko'ra chegaralangan, maxsus

leksemalardir, ushbu birliklarning yagona ma'nosi muayyan tushunchalarni ataydi" (Реформатский, 1976). Yana bir ta'rifga ko'ra, "termin – ilmiy-texnik tushuncha, hodisalarni aniq nomlovchi so'z yoki so'z birikmasidir" (Ахманова, 1986). "Termin – bu fan va texnikaning ma'lum bir sohasi tushunchalari tizimidagi element va u bilan bog'langan boshqa hodisalarni atovchi leksema yoki leksik birikmadir" (Hayka, 1970). Ta'riflardan anglashilganidek, terminlar asosan ilm-fan, texnikaga oid tushunchalarni ifodalashi bilan chegaralangan leksik plastni tashkil qiladi. Aynan shu chegara doirasi bilan terminlar atamalardan ajralib turadi. Zotan har qanday nom (ot turkumiga oid leksema) muayyan tushunchani atashi mumkin, terminlar esa faqat ilm-fan, texnika arealida cheklanadi. Terminlar aniq bir tushunchani ifodalash bilan birga umumiste'moldagi tushunchani ham anglatishi mumkin. Masalan, *quvvat* termini fizik fenomenni atash bilan birga umumiste'molda *kuch* semasini ham ifodalaydi. Bunday polisemik leksemalarning faqat termin semasi chegaralangan leksik guruhga oid. Shu tariqa terminlar o'z paradigmasi ichida umum iste'moldagi va tor doirada qo'llanuvchi turga tasniflanadi. Umumiste'moldagi terminlar *hujayra*, *to'qima*, *motor*, *quvvat* deyarli barchaga birdek tushunarli bo'lsa, tor doirada qo'llanuvchi *gippokampus*, *gaplorin primati* kabi birliklar faqat olimlar, soha tadqiqotchilari uchun tushunarlidir. Shu asnoda terminlar ham binar tamoyilga ko'ra o'z ichida ikki turga tasniflanadi.

Jargonlar faqat og'zaki nutqqa xos bo'lib kasbiy faoliyat doirasida cheklanadi. Bunda adabiy tilda bir ma'noga ega bo'lgan leksemalar jargon sifatida butunlay boshqa semani ifodalaydi. O'zbek tilidagi jargonlar asosan rus tilidagi ayni guruhning to'g'ridan-to'g'ri tarjimasi bo'lar edi. Masalan, *g'isht* – *кирпичь* haydovchilar tilida mashina haydab o'tish taqiqlangani anglatuvchi ko'cha belgisi, *менм* – *xit* huquq-tartibot organi xodimi kabi jargonlar rus tilida ommalashgan birliklarning o'zbekcha muqobilidir. Fransuz tilida oliy

tabaqa nutqiga xos leksik plastni anglatuvchi jargon atamasi amalda turli kasb, yosh, ijtimoiy kelib chiqishga ega kishilar nutqiga mansub soʻzlar yigʻindisini ifodalamoqda. Argo esa jamiyatdan izolyatsiyalangan, xufiyona hayot kechiruvchi deklassifikatsiyalangan shaxslar nutqiga xos leksik birliklar boʻlib ularning voqelanish doirasi jargondan koʻra torroq.

Chegaralangan leksika turkumidagi yana bir guruh eskirgan yoki arxaik soʻzlarni oʻz ichiga oladi. Til jonli, dinamik hodisa ekani uning leksik sathidagi muntazam oʻzgarishlarda koʻzga tashlanishi maʼlum. Vaqt oʻtib soʻzning maʼnosi oʻzgarishi, uslubiy boʻyoqdorligida ham oʻzgarish yuz berishi mumkin. Shuningdek vaqt oʻtib soʻzlar isteʼmoldan chiqib ketishi ham kuzatiladi. Ekstralingvistik omillar taʼsiri ostida soʻz ifodalovchi tushuncha dolzarbligini yoʻqotgach, tushunchani ifodalovchi leksik birlik ham eskirgan yoki arxaik guruhdan oʻrin oladi. Masalan, eski turkiy va eski oʻzbek tillarida faol qoʻllanilgan *mirgʻazab*, *mirshab*, *amir* kabi atamalar bugungi kunga kelib faqat tarix bayoni kontekstida, tarixiy nutqni jonlantirishda qoʻllanadi. Ingliz tilidagi *dame*, *husbandman*, *wench*, *carl* kabi leksemalar ham umumisteʼmoldan chiqib ketgan arxaik soʻzlar sirasiga kiradi. Zamonaviy til lugʻatlarida arxaik yoki tarixiy leksemalar bayoniga alohida urgʻu berilmaydi. Chastota lugʻatlarida ushbu

leksemalar nafaol yoki kam qoʻllanuvchi birliklar sifatida eʼtirof etilishini kuzatish mumkin. Biror leksik birlik umumisteʼmoldan chiqishi bilan ushbu soʻzdan anglashiladigan tushuncha tilda aktual boʻlib qolgan taqdirda eskirgan leksemaning zamonaviy ekvivalenti nutqda faol qoʻllanadi. Arxaizmlar semantik, frazeologik, leksik-fonetik hamda leksik-hosilaviy tiplarga tasniflanadi (Ахманова, 1986). Eskirgan, umum isteʼmoldan chiqib ketgan soʻzlar baribir leksik sathda qoladi va tilning nafaol, passiv lugʻat tarkibini hosil qiladi. Eskirgan soʻzlarning qoʻllanish meʼyori, semantik koʻlamini oʻrganish va ular ifodalaydigan tushunchalarni zammonaviy ekvivalent nomi bilan qiyoslash til taraqqiyoti bosqichlarini anglash imkonini beradi.

Xulosa

Maqolada leksik sathni tasniflashning uch mezoni va chegaralangan leksikaning asosiy turlari tizimli yoritildi. Qiyosiy kuzatishlar oʻzbek va ingliz tillarida ushbu guruhlarining qoʻllanish mexanizmlari koʻp jihatdan oʻxshash boʻlsa-da, hududiy va ijtimoiy omillar tufayli konkret koʻrinishlarda farqlanishini koʻrsatdi. Kelgusida korpus asosida miqdoriy tahlillarni kengaytirish, ayniqsa dialektizmlar va jargon birliklarining ommaviylashuv dinamikasini vaqt qatori maʼlumotlari bilan oʻrganish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar roʻyxati:

1. Enazarov, T. (2021). *Oʻzbek dialektologiyasi: nazariya va amaliyot* (pp. 66–91). Toshkent: Mahalla va oila.
2. Rakhimovna, S. Z. (2022). The historical background of the definition of barbarism and its occurrence in the literary texts. *Indonesian Journal of Innovation Studies*, 18.
3. Rakhimovna, Z. S. (2021). Vocabulary study of the tourism terms in the Uzbek language. *IEIRD-International Multidisciplinary Journal*, 6, 275–281.
4. Собирова, З. (2020a). Туризм атамаларининг ўзбек тилидаги лексик-семантик тадқиқи борасидаги қарашлар. In *Молодой исследователь: вызовы и перспективы* (Vol. 22, pp. 462–464). Москва: Интернаука. EDN LBTORL.
5. Собирова, З. (2020b). Туризм атамаларининг лексик-морфологик таркиби ва мавзуй таънифи тўғрисидаги айрим муаммолар. In *Молодой исследователь: вызовы и перспективы* (Vol. 22, pp. 456–458). Москва: Интернаука. EDN IVDUBP.

6. Собирова, З. Р. (2020). Ўзбек сайёҳлик терминларининг инглиз тилига таржимасида учрайдиган айрим муаммолар. *Сўз санъати халқаро журналы*, 5(3).
7. Собирова, З. (2020). Лексик-семантик терминологик таржиманинг баъзида учрайдиган муаммолари (спорт туризми терминлари мисолида). In *Молодой исследователь: вызовы и перспективы* (pp. 459–461). Москва: Интернаука.
8. Sobirova, Z. R. (2022). The development of English children's literature and its representatives. *Scientific Reports of Bukhara State University*, 2022(1), 29–36.
9. Aitchison, J. (2012). *Words in the mind: An introduction to the mental lexicon* (4th ed.). Wiley-Blackwell.
10. Auer, P. (2005). *Dialect change: Convergence and divergence in European languages*. Cambridge University Press.
11. Bloomfield, L. (1933). *Language*. Henry Holt.
12. Crystal, D. (2008). *A dictionary of linguistics and phonetics* (6th ed.). Blackwell.
13. Cruse, D. A. (2000). *Meaning in language: An introduction to semantics and pragmatics*. Oxford University Press.
14. Ferrer i Cancho, R., & Solé, R. V. (2001). Two regimes in the frequency of words and the origins of complex lexicons: Zipf's law revisited. *Journal of Quantitative Linguistics*, 8(3), 165–173.
15. Lyons, J. (1977). *Semantics* (Vol. 1–2). Cambridge University Press.
16. Saussure, F. de. (1959). *Course in general linguistics* (W. Baskin, Trans.). Philosophical Library.
17. Trask, R. L. (1999). *Key concepts in language and linguistics*. Routledge.
18. Ахманова, О. С. (1986). *Словарь омонимов русского языка* (3-е изд.). Русский язык.
19. *Лингвистические проблемы научно-технической терминологии*. (1970). Наука.
20. Плоткин, В. (1989). *Строй английского языка* (р. 27). Высшая школа.
21. Реформатский, А. А. (1967). *Введение в языкознание* (4-е изд.). Просвещение.
22. Соссюр, Ф. де. (1977). *Труды по языкознанию*. Москва: Прогресс.

Jon Tolkin asarlarida arxetiplar transformatsiyasi

Muzaffarov Javlon Qodirjonovich

j.muzaffarov@mail.ru

Tayanch doktorant,

Namangan chet tillari instituti

Annotatsiya *Mazkur maqolada badiiy asarlarda makon va zamon manzarasining o'zaro aloqadorlikda ifodalanishi tahlil qilinadi. Badiiy makon muallifning dunyo haqidagi o'ziga xos qarashlari, tasavvurlari va estetik pozitsiyasining in'ikosidir. U turli shakl va yo'nalishlarda namoyon bo'lib, ijtimoiy, axloqiy hamda madaniy omillar bilan chambarchas bog'liq holda badiiy matnda mazmuniy yuklama kasb etadi.*

Kalit so'zlar *Badiiy makon, badiiy zamon, ramz, nuqtaviy makon, chiziqli makon, ijtimoiy omillar, axloqiy kategoriyalar, madaniy mazmun, yo'l ramzi, estetik qarashlar*

Трансформация архетипов в произведениях Джона Толкина

Музаффаров Жавлон Кодиржонович

j.muzaffarov@mail.ru

Базовый докторант,

Наманганский институт

иностранных языков

Аннотация *В статье анализируется взаимосвязь пространственно-временного ландшафта в произведениях искусства. Художественное пространство является отражением уникальных взглядов, представлений и эстетической позиции автора о мире. Оно проявляется в различных формах и направлениях и в тесной связи с социальными, моральными и культурными факторами приобретает смысловую нагрузку в художественном тексте.*

Ключевые слова *Художественное пространство, художественное время, символ, точечное пространство, линейное пространство, социальные факторы, моральные категории, культурное содержание, дорожный символ, эстетические воззрения*

Transformation of archetypes in the works of John Tolkien

Muzaffarov Javlon Qodirjonovich

j.muzaffarov@mail.ru

Base doctorate,

Namangan Institute of Foreign Languages

Annotation *This article analyzes the interrelation of the landscape of space and time in works of art. Artistic space is a reflection of the author's unique views, imaginations and aesthetic position about the world. It manifests itself in various forms and directions, and in close connection with social, moral and cultural factors, it acquires a semantic load in the artistic text.*

Key words *Artistic space, artistic time, symbol, point space, linear space, social factors, moral categories, cultural content, road symbol, aesthetic views*

Kirish

Badiiy asarlarda makon va zamon manzarasi o'zaro murakkab aloqalar orqali ifodalanadi, bunda vaqt, ijtimoiy va axloqiy omillar o'zaro bog'lanadi. Badiiy makon — muallifning dunyo haqidagi o'ziga xos modeli bo'lib, u adibning makonga oid tasavvurlarini badiiy til yordamida ifodalaydi. Badiiy makon turli shakllarda — nuqtaviy, chiziqli, tekis yoki hajmli bo'lib, har xil yo'nalishlarga ega bo'lishi mumkin. Masalan, yo'l ramzi vaqt kategoriyalarini modellashtirishda keng qo'llaniladi. Makon zamon bilan birga ijtimoiy va axloqiy kategoriyalarni ham ifodalaydi; «yuqori-past», «o'ng-chap», «yaqin-uzoqlik» kabi makoniy tushunchalar madaniy mazmunga ega bo'lib, turli dunyoqarashlarni shakllantirishda asosiy vosita hisoblanadi.

Ushbu maqolada J.R.R. Tolkiyening «Xobbit, yoki U yoqqa va ortga» romani badiiy makon modeli sifatida tahlil qilinadi. Asarda makon arxetiplari — uy, yo'l, o'rmon, tog', yerosti, suv, osmon, chegara — voqea tuzilmasi va mifologik dunyo tasvirida qanday rol o'ynashi ko'rib chiqiladi. Rohatbaxsh hayot Elrond uyi arxetipida ham namoyon bo'ladi. Ushbu oila shaklidagi do'stona elf jamoasi daralar, jarliklar va botqoqlar bilan himoyalangan vodiysida yashaydi. Bu joyga kirish faqat oq toshlar bilan belgilangan yo'l orqali amalga oshiriladi, bu poklik ramzi sifatida qaraladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Vodiyning tinch va sehrli atmosferasi mehmonlarga moddiy va ma'naviy ta'sir ko'rsatadi. Safarga chiqqanlar bu yerda hordiq chiqaradi, tanalaridagi jarohatlar bitadi, kiyimlari tiklanadi, hamda mezbonlar tomonidan yengil va to'yimli taomlar taqdim etiladi. Shu bilan birga, ko'plab maslahatlar berilib, mehmonlarning ruhiy holati yaxshilanadi (Lotman, 1998).

Tadqiqot materiali sifatida J.R.R. Tolkiyening «Xobbit» romani tanlandi. Badiiy

makonning turli shakllari va ularning ramziy mazmuni tahlil qilindi. Badiiy makonni vaqt, ijtimoiy va axloqiy kategoriyalar bilan bog'lash usullari ko'rib chiqildi. Matnli manbalar — asar matni va olimlarning makon nazariyalari — asosida makoniy arxetiplar identifikatsiya qilindi va ularning romandagi funksiyalari o'rganildi.

Romandagi bir arxetip -Yo'l ruhiy kamolot arxetipi sifatida gavdalangan. Xobbitlar yurtidan Yolg'iz tog'gacha bo'lgan yo'l bir holatdan boshqasiga o'tishni ifodalovchi klassik initsiatsiya arxetipini mujassam etadi. Yo'l butun roman tuzilishini belgilab, Bilboning tinch uy odamidan qahramonga aylanishdagi ichki rivojlanishdagi ramziga aylanadi (Tolkien, 1937).

Romanda o'rmon arxetipi noaniqlik va sinovlar arxetipi sifatida tasvirlangan. Qorong'u o'rmon- bu qahramon noma'lum va xavfli holatlar bilan yuzlashadiga sinovlar Makoni arxetipidir. Liholes'ye esa osongina adashib qolish mumkun bo'lgan labirint, vaqt va makonning odatiy qonunlari buzilgan makondir. O'rmon- bu ongsizlik, kaos va ibtidoiy unsur ramzidir. Aynan shu yerda Bilbo birinchi marta chinakkam jasoratni namoyon etadi- u gnomlarni o'rgimchaklar va elflarning qo'lidan qutqaradi, bu esa uning qahramon sifatida shakllanishdagi muhim bosqichini anglatadi (Tolkien, 1937).

Romandagi yer osti dunyosi o'lim va qayta tug'ilish arxetipi sifatida gavdalanitirilgan. Yerosti makonlari -Gollum g'ori, goblinlar tunellari, Yolg'iz tog' ichki qismi- o'lim va oz'garish Makoni bo'lgan quyi dunyo arxetipini anglatadi. Gollum g'orida Biblo o'zining eski "men"ining ramziy o'limini boshdan kechiradi va sehrli artefakt-yangi imkoniyatlar va kuchlarni ifodalovchi uzukni qo'lga kiritadi. Yer osti Makoni tashabbus marosimi o'tkaziladigan joyga aylanadi, bu yerda u o'z soyasi bilan hal qiluvchi uchrashuvni boshdan kechiradi (Nasriddinov, 2021).

Natijalar

Bu idillik joyda havoning tinchlantiruvchi ta'siri, ko'k yulduzlar nur sochishi va "elflar isi"ning mavjudligi sababli kayfiyat ko'tariladi. Vodiyning yovuzlikdan xoli bo'lishi tufayli barcha o'zini yaxshi his qiladi va vaqtning o'tishi sezilmaydi (Lotman, 1998).

Tahlil natijasida «Xobbit» romanida makoniy arxetiplarning muhimligi aniqlanadi.

1. Uy arxetipi — Bilboning kulbasi qulaylik, xavfsizlik va o'ziga xos tinchlik maskani sifatida ifodalangan. Dumaloq eshik, shinam xonalar, oziq-ovqat zaxiralari va jihozlar uning ideal uy ekanligini tasvirlaydi. Bu makonning badiiy til orqali timsoli o'quvchiga iliq, samimiy va qulay olamni taqdim etadi.
2. Yo'l arxetipi — chiziqli, yo'nalgan makon sifatida vaqt va xarakter rivojlanishini ifodalaydi. Yo'l ramzi orqali «hayot yo'li» va voqealar rivoji modellashtiriladi.
3. Boshqa arxetiplar — o'rmon, tog', yerosti, suv, osmon va chegara kabi makonlar romandagi syujet va dunyoqarashni boyitadi, voqealar o'rtasida bog'lanishlar o'rnatadi (Lotman, 1992).

Tolkiennning fazoviy arxetiplari shunchaki geografik joylar emas, balki chuqur ramziy ma'noga ega mifologik toposlardir. Ular O'rta Yerning kosmologiyasini — butun bir olam modeli sifatida shakllantiradi, bunda har bir joy koinotning umumiy tuzilishida o'ziga xos vazifaga ega.

Hobbit asarida ko'plab fazoviy arxetiplar bor, lekin ularning orasida uchta eng asosiy shaklni ajratish mumkin: Zanjirlangan makon arxetipi — Elf zindoni. Tolkien asarlarida "zanjirlangan makon" klassik qamoqxona emas, balki qahramonning ruhiy o'sishi va sinovdan o'tishi uchun yaratilgan joy sifatida ko'rinadi. Elf zindoni — to'liq berk, tashqariga chiqish yo'li yo'qdek tuyuladigan makon. Bu makon ramziy ma'noda insonning tushkunlikka tushishi, qamalib qolishi, umidsizlikdan chiqish uchun ichki kuch topishi jarayonini ifodalaydi. "The Hobbit"da Bilbo va gnomlarning elf zindoniga tushishi — ruhiy izolyatsiya tajribasi bo'lib,

hobbit asta-sekin faol tashabbus ko'rsatib, do'stlarini qutqaradi. Demak, zanjirlangan makon arxetipi qahramonning ichki "o'zini topish" yo'lida zaruriy to'siq sifatida talqin qilinadi (Nasriddinov, 2021).

Xotira arxetipi — Rivendell bu shunchaki geografik joy emas, balki xotira va afsona saqlanadigan makon. U yerda vaqt oqimi boshqa joylardagidek sezilmaydi: kundalik hayot to'xtagandek, odam "afsonaviy vaqt"ga tushib qoladi. Rivendellning ramziy ma'nosi — madaniy va tarixiy xotira. Elflar asrlar davomida shajara, afsona va bilimlarni saqlab kelgan, shu sababli Rivendell insoniyatning kollektiv xotirasi timsoli bo'lib xizmat qiladi. Bilbo bu joyni orzu yoki tushdek eslaydi: u yerda hamma narsa go'zal, elflar ham qadimiy, ham yosh bo'lib ko'rinadi.

Demak, Rivendell qahramon uchun o'zligini eslash va tarixiy ildizlarga qaytish imkonini beradi. Hunarmand makoni arxetipi — Gnomlar konlari Erebor — hunarmandchilikning markazi, gnomlarning mehnat va mahorati bilan yaratilgan podshohlikdir. Bu makonning ramziy mohiyati — insonning yaratuvchanligi va mehnat orqali o'zini anglash jarayoni. Gnomlarning konlari va ustaxonalari oddiy moddiy ishlab chiqarish emas, balki insonning ichki dunyosi bilan bog'liq ma'noga ega: u yaratgan narsasi orqali o'zini kashf etadi. Erebor — oltin, qimmatbaho toshlar va qurollar bilan bezalgan, haqiqiy "mehnat xazinasi". Shu bilan birga, Tolkien bu makonni ochko'zlik va xazina uchun kurashning xavfli tomoni bilan ham tasvirlaydi.

Demak, hunarmand makoni arxetipi ikki tomonlama: bir tomondan ijod va bunyodkorlik, boshqa tomondan halokat va ochko'zlik.

Muhokama

Tolkiyening «Xobbit» romani makoniy munosabatlar tilining murakkab tizimini ochib beradi. Badiiy makon orqali vaqt, ijtimoiy va axloqiy tushunchalar sintez qilinadi, bu esa asarning mazmuniy va mifologik qatlamlarini boyitadi. Uy arxetipi qahramonning ruhiy

holatini va jamiyat bilan munosabatini aks ettirsa, yo'l arxetipi xarakterning rivojlanishi va voqea o'sishini modellashtiradi. Makoniy kategoriyalar madaniy tafakkurda chuqur o'rin egallagan bo'lib, «yuqori-past», «o'ng-chap» kabi qarama-qarshiliklar orqali axloqiy va ijtimoiy modellarga xizmat qiladi.

«Hobbit»dagi makon arxetiplari nafaqat fantastik olamning geografiyasini, balki inson ruhining xaritasini ham yaratadi, bunda tashqi sayohat qahramonning ichki yo'lini — voyaga yetmaganlikdan donolikka, qo'rqinchdan jasoratga, izolyatsiyadan katta dunyoda o'z o'rnini anglashga o'tishni aks ettiradi.

Elrond uyining mukammalligi, ya'ni taom, uyqu, mehnat, hikoya aytish, kuylash yoki shunchaki o'ylash kabi faoliyatlarni yoqtirishdan qat'i nazar, har bir kishiga mos keladi. Bu holat yovuz narsalarning vodiyni tark etishini ta'minlaydi. «Hobbit»dagi makon arxetiplari nafaqat fantastik olamning geografiyasini, balki inson ruhining xaritasini ham yaratadi, bunda tashqi sayohat qahramonning ichki yo'lini — voyaga yetmaganlikdan donolikka, qo'rqinchdan jasoratga, izolyatsiyadan katta dunyoda o'z o'rnini anglashga o'tishni aks ettiradi (Tolkien, 1937).

Tolkien makonlarni aniq ikkiga bo'ladi: «o'z» (xavfsiz, do'stona) va «boshqalar» (xavfli, dushmanona): O'z makonlari: Xobbitoniya, Rivendell'dagi Elrondning uyi, Beorning maskani. Boshqalar makonlari: goblinlarning panohi, Lixoles o'rmoni, ajdaho g'ori. Bu dikotomiya kosmos (tartibli olam) va xaoz (tartibsiz tabiat) arxetipik qarama-qarshiligini aks ettiradi.

Bilboning sayohati siklik xarakterga ega — «borish va qaytish». Ushbu tuzilma abadiy qaytish arxetipini aks ettiradi, ammo qaytish yangi bosqichda sodir bo'ladi. Bilbo aynan o'sha kulbaga qaytadi, lekin u endi sarguzasht boshida uyini tark etgan hobbit emas.

Shu tarzda, «Xobbit»dagi makoniy arxetiplar badiiy matnning strukturasini shakllantirishda va o'quvchining voqelikni

qabul qilishida muhim vosita hisoblanadi. Bu, o'z navbatida, badiiy makonning zamon, ijtimoiy va axloqiy komponentlari bilan birga murakkab tizim ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa

Jon Tolkin asarlarida arxetiplarning transformatsiyasi badiiy adabiyot va mifopoetik tafakkur o'zaro aloqasining yorqin namunasidir. Muallif klassik mifologik va diniy arxetiplarni (qahramon, donishmand, sinov yo'li, yovuz kuch, najotkor va hokazo) ijodiy qayta talqin qilish orqali ularga yangi mazmun bag'ishlagan. Bu jarayonda u uchta asosiy yo'nalishda transformatsiyani amalga oshiradi:

1. Strukturaviy transformatsiya – qadimiy mifologik qahramonlik arxetiplari zamonaviy fantaziya kontekstida qayta yaratiladi. Masalan, Frodo obrazi klassik qahramon arxetipidan farqli o'laroq, kuch-qudrat emas, balki iroda va ma'naviy barqarorlik orqali sinovlardan o'tuvchi timsol sifatida gavdalanadi.
2. Semantik transformatsiya – arxetiplar ichki mazmun jihatidan boyitilib, Tolkin asarlarida universal axloqiy g'oyalarni ifoda etadi. "Halqa" arxetipi qadimiy sehrli buyum an'anasidan o'tib, mutlaq hokimiyatning halokatli mohiyatini ramziy ifodalovchi ma'noga ega bo'ladi.
3. Kulturologik transformatsiya – Tolkin turli madaniyat va miflardan olingan arxetiplarni uyg'unlashtirib, ularni yagona mifopoetik tizimda birlashtiradi. Bu orqali u o'zining "ikkinchi dunyo"si – Yangi mifologiya (Sub-creation)ni yaratadi, bu esa zamonaviy fantastik adabiyotning asosiy paradigmasiga aylangan.

Umuman olganda, Tolkin ijodida arxetiplar nafaqat takrorlanadi, balki dinamik ravishda transformatsiyaga uchrab, zamonaviy kitobxon ongida qadimiy miflarning yangi badiiy va ma'naviy talqinini shakllantiradi. Shu bois uning asarlaridagi arxetiplar transformatsiyasi nafaqat adabiy-estetik hodisa, balki madaniy-falsafiy jarayon sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Lotman, Y. M. (1998). Struktura khudozhestvennogo teksta. In Y. M. Lotman, *Ob iskusstve* (p. 138). Sankt-Peterburg: Iskustvo–SPB.
2. Lotman, Y. M. (1992). Problema khudozhestvennogo prostranstva v proze Gogolya. Zametki o khudozhestvennom prostranstve. In Y. M. Lotman, *Izbrannye stat'i* (Vol. 1, pp. 413–463). Tallinn.
3. Tolkien, J. R. R. (1937). *The Hobbit, or There and Back Again* (Chapter 3: A Short Rest, p. 62). London: George Allen & Unwin.
4. Tolkien, J. R. R. (1937). *The Hobbit, or There and Back Again* (Chapter 9: Barrels Out of Bond). London: George Allen & Unwin.
5. Tolkien, J. R. R. (1937). *The Hobbit, or There and Back Again* (Chapter 1: An Unexpected Party). London: George Allen & Unwin.
6. Nasriddinov, D. A. (2021). Dzhordzh Martin fentezi asarlari poetikasi [Doctoral dissertation abstract, Tashkent State University]. Tashkent.
7. Koshelev, S. L. (1984). K voprosu o zhanrovyykh modifikatsiyakh romana v filosofskoy fantastike. In *Problemy metoda i zhanra v zarubezhnoy literature* (Issue 9, pp. 133–134). Moscow: MGPI.
8. Tolkien, J. R. R. (2000). *Khobbit, ili Tuda i Obratno; Priklyucheniya Toma Bombadila i drugie istorii* (Trans. from English, p. 68). Sankt-Peterburg: Azbuka.

Gender communication barriers and violation of politeness maxims

Xoshimova Nargis Abdullayevna,
nargis.khoshimova@gmail.com
PhD, Associate professor

-
- Annotation** *Gender speech is controversial issue, which requires to be researched in different fields of linguistics. Especially studying the gender speech and language in conflict situations is considered actual and significant, as it promotes understanding the essence of gender conflicts. The gender communication barriers, as the main obstacles in gender speech, have been analyzed. The violation of J.Leech's politeness maxims in gender speech according to the gender communication barriers has been revealed.*
- Key words** *Gender speech, gender language, gender communication barriers, gender stereotype, politeness maxims, genre of conflict*

Гендерные коммуникативные препятствия и нарушение принципов вежливости

Хошимова Наргис Абдуллаевна,
nargis.khoshimova@gmail.com
PhD, Доцент

-
- Аннотация** *Гендерная речь – дискуссионная тема, требующая исследования в различных областях лингвистики. Изучение гендерной речи и языка в конфликтных ситуациях представляется особенно актуальным и значимым, поскольку способствует пониманию сути гендерных конфликтов. Проанализированы гендерные коммуникативные барьеры как основные препятствия в гендерной речи. Выявлено нарушение максим вежливости Д.Лича в гендерной речи в контексте гендерных коммуникативных барьеров.*
- Ключевые слова** *Гендерная речь, гендерный язык, гендерные коммуникативные барьеры, гендерный стереотип, максимы вежливости, жанр конфликта*

Gender muloqot to'sqinliklari va xushmuomalalik tamoyillarining buzilishi

Xoshimova Nargis Abdullayevna,
nargis.khoshimova@gmail.com
PhD, Dotsent

-
- Annotatsiya** *Gender nutqi munozarali masala bo'lib, tilshunoslikning turli sohalarida tadqiq qilishni talab qiladi. Ayniqsa, ziddiyatli vaziyatlarda gender nutqi va tilini o'rganish dolzarb va ahamiyatli hisoblanadi, chunki u gender mojarolarining mohiyatini tushunishga yordam beradi. Gender nutqidagi gender muloqot to'sqinliklari tahlil qilindi. J.Lichning gender nutqida gender muloqoti to'sqinliklariga ko'ra xushmuomalalik meyorlari buzilganligi aniqlandi.*
- Kalit so'zlar** *Gender nutqi, gender tili, gender muloqoti to'sqinliklari, gender stereotipi, xushmuomalalik tamoyillari, nizo janri*

Introduction

In speech culture, it is determined by certain rules that a person should always conduct a conversation while observing the rules of politeness. The culture of politeness is unique for each nation. The rules of politeness cover the cultural heritage of the people, their thinking, the development of consciousness, traditions and customs passed down from generation to generation. In recent years, the culture of politeness has become an object of research in linguistics. In gender linguistics, the culture of politeness is also being comprehensively studied in the world linguistics. In sociolinguistics, issues such as the study of the culture of politeness in social strata, the culture of politeness of people occupying various positions, the culture of politeness with an age factor have been studied in detail. In the direction of pragmalinguistics, the culture of politeness through speech acts, the maxims of politeness and the issue of maintaining prestige (face saving) in communication are in the focus of research, while in the direction of linguocultural studies, the expression of the principles of politeness in different cultures is the focus, in the direction of psycholinguistics, the culture of politeness through various conflicts, the internal experiences of a person and the psychological factors of politeness disorders are the focus. In gender linguistics, the culture of politeness is studied as a special expression of politeness in male and female language. We analyze gender language in the study of politeness culture in a synergistic approach. That is, we analyze the maxims of politeness and their violation in gender speech within the scope of pragmalinguistics, psycholinguistics and sociolinguistics, thus drawing our own conclusions about the noticeable differences in male and female speech. As well as the analyses of violation of politeness maxims due to gender communication barriers will be presented in the article.

Literature review

Gender communication barriers arise from the nature of women and men and the concept of gender stereotypes formed in society. A range of researchers conducted studies on gender communication barriers. A.A. Nikitina and K.A. Radina (2010) investigated the gender communication barriers in micro and macro layers of the text. M. Yermolayeva (2010) divides gender communication barriers into several types:

1. Stereotypical-cognitive barriers are formed through the prism of gender, which refers to both sexes;
2. Socio-communicative gender communication barriers are associated with the position of men and women in society, their social inequality, and lead to various misunderstandings in communication;
3. Gender-role communication barriers are associated with the roles of men and women formed in society. The roles of men and women differ in the home and workplace, leading to the formation of a certain traditional stereotype. Stereotypical barriers are formed in society and differ in different nations and ethnicities;
4. Communicative-behavior gender communication barriers arise from a lack of understanding of the speech strategies of the opposite sex, leading to a misinterpretation of speech intentions and cause certain obstacles;
5. Ethical-communicative gender communication barriers arise from a negative assessment of the characteristics and qualities of the opposite sex. This leads to a violation of the politeness maxims in gender speech (Ermolova, 2010).

We will consider what situations can lead to misunderstandings between men and women and what the obstacles to gender

communication can emerge. Thus, we will approach the communication of men and women from the genre of conflict.

According to Ye. Kireeva (2005) conflict is an immanent feature of universal existence, a clash of personal views of people. Conflict is defined biologically and socially, as it occurs in every sphere of our lives. We agree with Ye. Kireeva and note that conflict is unique in each culture. Conducting a conversation in accordance with D. Leech's maxims of politeness during communication ensures the resolution of conflicts, encourages people to respect each other and promotes effective communication. K.F. Sedov (2010) approves the genre of quarrels as the primary genre that reflects vital socio-psychological conflicts in verbal and non-verbal form. V.V. Dementyev (2010) includes the scandal genre in the category of phatic speech genres and defines it as a genre that leads to the violation of interpersonal relations. We also include the scandal genre in the category of speech genres and emphasize that it is a genre that clearly reflects the communicative behavior of people. A. Vezhbitskaya (1997) explains this genre as a genre that provides an understanding of the culture of a particular society.

In the present article we will examine cases of violation of D. Leech's (2013) maxims of politeness in conflict situations, as well as in which category of politeness maxims are most violated, the emergence of conflict situations between men and women. We shall also analyze the barriers to communication that lead to conflict in the communication of male and female.

Results and discussions

In order to illustrate the violation of politeness principles in different conflict situations we observed some Russian, English and Uzbek literary works. The following dialogic speech shows the violation of the principles of communication in the relationship between a man and a woman, and ethical-communicative barriers in communication lead to a violation of speech etiquette.

Subordination, softness and dominance, typical of a woman, alternate in their speech:

Dilbar: Where are you going now? Work s at eight o'clock...

Hafiz: I am leaving at seven, what's happened if I leave at half past seven, Dilbar! – he whispered. – I just wanted to go to work earlier.

Dilbar: Hafiz-aka, are you honest!? – the woman spoke sharply. – You leave home at dawn and come back when it gets dark, you don't think about anything... You only think about yourself!?

Hafiz: I don't have anything important to do right now, do you?

Dilbar: Fair enough, go... (O. Mukhtar, The Country and Kingdom of Women)

As L. Gushina and Y. Yevtukhova (2013) cites, the dominance in female speech can occur when she shows disagreement.

According to R. Lakoff (1975), if a woman's speech becomes aggressive and the cooperation characteristic of female speech disappears, such speech is considered aggressive and inconsistent with female speech and the stereotype of female speech disappears.

According to D. Leech (2010), the factor that ensures the effectiveness and positiveness of human communication are the politeness maxims. The basis of conflicts in interpersonal, especially male-female communication, is the failure to comply with the maxims of politeness.

At the same time, it is clear from the speech of the man in this dialogue that Hafiz, adhering to D. Leech's maxims of agreement, tried to mitigate the conflict, that is, the expression "I don't have anything important to do right now?" prompted Dilbar's response "*Fair enough, go ...*". The correctly chosen illocutionary act by the man led to the effectiveness of the woman's speech act. As for the gender characteristics of conducting a conversation, the male dominance was transferred to the female and the female establishment of cooperation was transferred to the male.

Let us give another example of an ethical-communicative gender barrier. This type of gender barrier in communication occurs when a negative opinion is expressed about the characteristics of both sexes. Below we will analyze how the violation of etiquette occurs in the dialogue between Ostap Bender and his wife:

– *Wipe your eyes. Each of your tears is a molecule in space* (I. Ilf, Ye. Petrov, *The Twelve Chairs*). The metaphor used in this example indicates the specificity of male speech. That is, a woman cannot show indifference to the problems of others; in female speech such feelings as empathy and pity are expressed through appropriate metaphors.

In the example given, Ostap Bender speaks to his wife in an ironic manner, comparing her tears with a molecule in space. This shows the rudeness inherent in a man. According to D. Leech's maxims of politeness, as tact, generosity and approbation are absent in Ostap Bender's speech, which is why a conflict arises between husband and wife. Ostap Bender uses the stylistic device of litotes in his speech, which implicitly indicates that his wife's problem does not mean anything to him.

In the following extract the violation of politeness maxims occurred in the result of the type of gender barrier as the stereotypical-cognitive.

It is known that the topics that men and women discuss during a conversation also differ. While the topics of men are football, hunting, women, politics; women's topics include household chores, cooking, childcare, beauty salons. Therefore, in this dialogue, the conflict between a husband and wife is related to football:

– *If you say "no football" again, put your bag under your arm and go to your mother's.*

– *After all, your sister...*

– *If I have a sister, then my thousand-year-old sister... Can you use your brains, such a game happens once every four years. I have been waiting for such a game for four years.* (T. Malik, *The dead do not speak*).

The dialogue did not observe the politeness maxims. The man did not want to give his position, that is, he continued to defend his interests, male dominance, speech division and the use of negative vocabulary can be observed in the dialogue. The conflict that arose during the conversation is caused by a stereotypical-cognitive barrier, that is, it is caused by the difference in the worldview of men and women. The gender worldview of men and women is formed by different views, interests, associative fields and even language units characteristic of men and women. In order to defend his interests, the man's speech even showed emotion. However, emotion was not expressed through diminutive suffixes, exclamations and euphemisms that are expressed in women's speech, but through repetition: *such a game happens once every four years. I have been waiting for such a game for four years.* It is natural for people of Uzbek nationality to express the same thought repeatedly through different means. Our research has shown that Uzbek men repeatedly convey a thought through different means in order to gain more confidence in their statements or to make their speech credible. At the same time, hyperbole in male speech shows his emotions. In male speech, the categories of generosity and sympathy are violated the principles of politeness, that is, in the violation of the category of generosity, a man disregards a woman's worldview and interests, and approves of his own, and in the violation of the category of generosity, a man uses the expressions humiliating his wife.

The gender role communication barrier is illustrated in the following conversation between a husband and wife. In D. Steinbeck's novel *"The Wrath of Anger"*, when a difficult situation arises, the woman controls the situation. In order to take control, the woman quarreled with her husband and imposed her rule. The woman, who is usually gentle and dependent on her husband, always obeying his words, has changed dramatically. Her change is visible in her speech. A woman's

speech becomes aggressive and dominant, typical of a man. If swearing and oath-taking are common in men's speech, swearing in this situation is typical of women's speech. The man submits, hesitation and doubt appear in his speech:

– *I ain't a gonna go.*

– *What do you mean, you ain't gonna go?*

You got to go. You got to look after the family. – Pa was amazed at the revolt.

– *Only way you gonna get me to go is whup me.*

– *She moved the jack handle gently again.*

– *An' I'll shame you, Pa. I won't take no whupping, crying' an' a-begging'. I'll light into you. An' you ain't so sure you can whup me anyways. An' if you do get me, I swear to God I'll wait until you got your back turned, or you sit down, an' I'll knock you belly-up with a bucket. I swear to Holy Jesus' sake I will.*

– *She's sassy. I never saw her so sassy...*

– *The eyes of the whole family shifted back to Ma. She was the power. She had taken the control.* (J. Steinbeck, *The Wrath of Anger*)

yo'nalishlarda tahsil olayotgan talabalar tanlab olindi. Umumiy hisobda 40 nafar talaba tadqiqotda ishtirok etdi. Talabalar boshlang'ich (A1-A2), o'rta (B1-B2) va yuqori (C1) til darajasiga ega guruhlariga ajratildi. Bu guruhlash differensial yondashuvni baholashda muhim omil bo'lib xizmat qildi. Tadqiqotda foydalanilgan raqamli platformalar va vositalar talabalarining til darajasi, texnologik savodxonligi va ta'lim ehtiyojlariga qarab tanlandi. Ular quyidagilardan iborat: LMS tizimlari (Learning Management System): Moodle, Google Classroom – dars materiallarini tartibga solish, mustaqil topshiriqlarni nazorat qilish va baholash uchun ishlatildi. Mobil ilovalar: Duolingo, Quizlet, Kahoot – lug'at boyligini oshirish, qiziqarli testlar va o'yinli topshiriqlar asosida o'rganishni rag'batlantirdi. AI vositalar: Grammarly, Reverso, ChatGPT – yozma nutqni tekshirish, gap tuzish, tarjima qilish va suhbatlarni mashq qilish uchun ishlatildi. Virtual vositalar: Zoom va VR/AR asosida ishlab chiqilgan simulyatsiyalar – chet tilida jonli muloqot, real holatlarga mos virtual muhitlarda mashg'ulotlar o'tkazishga yordam berdi. Talabalar uch darajali klassifikatsiya asosida differensial yondashuvga bo'lindi. Har bir guruhga ularning til bilish darajasi, o'rganish uslubi (vizual, audial, kinestetik) va texnologik imkoniyatlaridan kelib chiqib mos raqamli vositalar tavsiya qilindi. Masalan: boshlang'ich darajadagi talabalar uchun – o'zlashtirishga yordam beruvchi vizual va interaktiv mobil ilovalar (Duolingo, Quizlet), oddiy grammatika mashqlari, tarjima mashqlari, o'rta darajadagilar uchun – kollaborativ topshiriqlar, qisqa yozma topshiriqlar (ChatGPT, Google Docs orqali), va testlar, yuqori darajadagilar uchun – real suhbatlar, VR asosidagi rolli o'yinlar, esse yozish va bahs-munozarali mashg'ulotlar tanlandi. Tadqiqot davomida quyidagi ma'lumot yig'ish usullaridan foydalanildi:

1. so'rovnomalar (anketalar) – barcha ishtirokchilarga darsdan oldin va keyin berilib, raqamli platformalar bo'yicha fikr-

mulohazalari, qoniqish darajasi va o'z-o'zini baholash darajasi o'rganildi;

2. kuzatuv – sinf mashg'ulotlarida talabalar faoliyati, qatnashuvi, texnologiyalar bilan ishlash tezligi, xatoliklar va rag'batlantiruvchi faktorlar aniqlandi;
3. yozma ishlar tahlili – talabalar tomonidan platformalar yordamida yozilgan insho, tarjima va topshiriqlar sifat jihatidan tahlil qilindi;
4. og'zaki intervyular – 15 nafar talaba va 3 nafar o'qituvchi bilan chuqurlashtirilgan suhbatlar o'tkazilib, differensial yondashuvga nisbatan munosabatlar o'rganildi;
5. test natijalari – platformalar joriy etilishidan avval va keyin til bilimlari test sinovlari orqali o'lchandi.

Tadqiqot davomida to'plangan ma'lumotlar asosida nofilologik yo'nalish talabalari uchun chet tilini o'rgatishda raqamli platformalardan differensial foydalanishning samaradorligi har tomonlama tahlil qilindi. Olingan natijalar talabalar til ko'nikmalarining rivojlanishida differensial yondashuv muhim o'rin tutishini tasdiqlaydi. Sinov dasturi

boshlanishidan oldin o'tkazilgan so'rovnoma shuni ko'rsatdiki, ishtirokchilarning 68 foizi ilgari chet tilini o'rganishda faqat an'anaviy uslublardan foydalangan, 32 foiz esa biror raqamli ilovadan foydalanib ko'rgan (ko'proq mobil ilovalar). Platformalar differensial tarzda joriy qilinganidan keyin, talabalar faoliyati va qatnashuvi quyidagicha o'zgardi:

1. Interaktiv darslarda ishtirok foizi 47% dan 82% gacha oshdi.
2. Mustaqil topshiriqlarni bajargan talabalar soni 38% dan 74% gacha ortdi.
3. Platformalardan foydalanish chastotasi: boshlang'ich darajadagi talabalar ko'proq Quizlet va Duolingo orqali ishlagan bo'lsa, o'rta va yuqori darajadagilar ChatGPT, Grammarly va Zoom orqali mashq qilishni afzal ko'rdi. Bu raqamlar shuni ko'rsatadiki, individual ehtiyoj va qiziqishlarga moslashtirilgan raqamli vositalar talabalarni til o'rganishga yanada faolroq jalb qiladi.

Platformalardan foydalanish orqali talabalar to'rt asosiy til kompetensiyasi (tinglab tushunish, o'qish, yozish, gapirish) bo'yicha salmoqli natijalarga erishgan.

Til ko'nikmasi	Dars boshidagi o'rtacha ball (10 ballan)	Dars oxiridagi o'rtacha ball	O'sish %
O'qish	5.4	7.6	+46%
Tinglab tushunish	4.8	7.1	+48%
Yozish	5.0	7.4	+48%
Gapirish	4.3	6.9	+60%

3 nafar chet tili o'qituvchilari bilan olib borilgan intervyular natijasiga ko'ra, differensial yondashuv orqali talabalar faolligi va darsga qiziqishi oshgan, mustaqil o'qish, topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish va baholash jarayonlari ancha osonlashgan, faol talabalar emas, balki **kam ishtirok etuvchi passiv guruhlar ham** asta-sekin darsga jalb qilingan.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, raqamli platformalardan differensial foydalanish til o'rganishda o'zlashtirish

darajasini va motivatsiyani oshiradi (Chapelle, 2001). AI va mobil ilovalar yozish va gapirish ko'nikmalarini mustahkamlashda ayniqsa samarali. Platformalarning turli uslubdagi o'quvchilarga moslashganligi darslarda faol ishtirokni ta'minlaydi. Differensial yondashuv yordamida har bir talabaning individual o'sishi va qamrab olinishi ortadi. Raqamli platformalardan differensial yondashuv orqali foydalanish nofilologik talabalar uchun chet tilini o'rgatishda samarali vosita ekanligi

ko'rsatildi. LMS, mobil ilovalar va AI elementlarni talabning individual ehtiyojiga qarab moslash orqali til ko'nikmalarini sezilarli oshirish mumkin (Turobov, 2021). Tadqiqot natijalari o'qituvchilar uchun differensial yondashuv va raqamli texnologiyalarni integratsiyalash bo'yicha treninglar tashkil etish, oliy ta'lim muassasalarida LMS va AI-qarorlar uchun markaziy resurslar va texnik bazani rivojlantirish, modul va

mashg'ulotlarni dizayn qilishda individual o'rganish uslublari va talab darajasiga ko'ra adaptiv kontent taqdim etish, yana ham keng qamrovli tadqiqotlar: turli fan yo'nalishlari, turli tillarda va turli universitetlarda differensial ta'sirlarni tahlil qilish, o'qituvchilar uchun motivatsion yondashuvlar va darslarni gamifikatsiyalash bo'yicha malaka oshirish singari bir qator takliflarni ilgari suradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Ayasheva, D. B., & Nurkenova, S. S. (2024). Technologies in teaching foreign languages. *Eurasian National University Bulletin*.
2. Brown, H. D. (2007). *Principles of language learning and teaching* (5th ed.). Pearson Education.
3. Cambridge University Press. (2023). *The future of language learning: How AI is transforming education*.
4. Chapelle, C. A. (2001). *Computer applications in second language acquisition: Foundations for teaching, testing and research*. Cambridge University Press.
5. Godwin-Jones, R. (2018). Second language writing online: An update. *Language Learning & Technology*, 22(1), 1–15.
6. Karimova, N. (2022). Differensial yondashuv orqali chet tilini o'rgatishning metodik asoslari. *Yangi O'zbekiston ilm-fan jurnali*, (3).
7. Kukulska-Hulme, A., & Shield, L. (2008). An overview of mobile assisted language learning: From content delivery to supported collaboration and interaction. *ReCALL*, 20(3).
8. Mirziyoyev, Sh. M. (2021). *Yangi O'zbekiston — xalqimiz uchun munosib hayot va yuksak taraqqiyot yo'lidir*. Toshkent: O'zbekiston.
9. Mirziyoyev, Sh. M. (2024, April 26). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi.
10. Nation, P. (2001). *Learning vocabulary in another language*. Cambridge University Press.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. (2020, November 6). *Chet tillarni o'rganishni ommalashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida*. PF–6108-son.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. (2021, May 19). *Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida*. PQ–5117-son.
13. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and methods in language teaching* (3rd ed.). Cambridge University Press.
14. Shahzoda, A. (2023). Nofilologik talabalarga ingliz tili o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish. *Scienceweb*.
15. Tazabekova, S. Z. (2024). Modern technologies and methods of teaching languages. *Fergana U Conference*.
16. Turobov, S. (2021). Chet tilini o'qitishda zamonaviy AKT vositalarining ahamiyati. *Filologiya masalalari*, (2).

17. Warschauer, M., & Kern, R. (2000). *Network-based language teaching: Concepts and practice*. Cambridge University Press.
18. Yusupova, G., & Matsabirova, D. (2025). Nemis tili o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish. *JUDR*

HISTORY



The Lingua Spectrum

Cogito, ergo sum

TARIX

107

ИСТОРИЯ

118

O'zbekiston Respublikasida saylov jarayonlarini shakllanish bosqichlari

Boltabayev Baxtiyor Sabirjonovich,
b.boltaboev@gmail.com
PhD, o'qituvchi,
Namangan davlat universiteti

- Annotatsiya** *Mustaqillik yillarida mamlakatda demokratik tamoyillarga asoslangan saylov tizimi yaratish, fuqarolarning siyosiy huquq va erkinliklarini ta'minlash hamda davlat boshqaruvida xalq ishtirokini kengaytirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirildi. Mazkur maqolada O'zbekiston respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng saylov jarayonlarini shakllanishi, saylov bo'yicha qonunlar, qarorlar, farmonlarni qabul qilish jarayonlari, partiyalarning shakllanishi masalalari atroflicha yoritib berilgan. Shuningdek, saylov jarayonlarida ochiqlik, oshkoralik va adolat tamoyillarining roli, ularning fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi ahamiyati ham tahlil qilinadi.*
- Kalit so'zlar** *Saylov kodekslari, erkin va demokratik saylovlarni tashkil qilish, saylov qonunchiligi, saylov kampaniyalari, deputatlar, siyosiy partiyalar, saylovlardagi nomzodlar masalasi, nomzodlarning dasturlari*

Этапы формирования избирательных процессов в Республике Узбекистан

Болтабаев Бахтиёр Сабиржонович,
b.boltaboev@gmail.com
PhD, преподаватель,
Наманганский государственный университет

- Аннотация** *В годы независимости в стране были реализованы последовательные реформы, направленные на создание избирательной системы, основанной на демократических принципах, обеспечение политических прав и свобод граждан, а также расширение участия народа в управлении государством. В данной статье подробно освещаются процессы формирования избирательных процедур в Республике Узбекистан после обретения независимости, принятие законов, постановлений и указов, связанных с выборами, а также вопросы формирования политических партий. Кроме того, анализируется роль принципов открытости, прозрачности и справедливости в избирательных процессах и их значение в развитии гражданского общества.*
- Ключевые слова** *Избирательные кодексы, организация свободных и демократических выборов, избирательное законодательство, избирательные кампании, депутаты, политические партии, вопросы кандидатов на выборах, предвыборные программы кандидатов*

Stages of formation of electoral processes in the Republic of Uzbekistan

Boltabayev Baxtiyor Sabirjonovich,
b.boltaboev@gmail.com
PhD, Lecturer,
Namangan State University

Annotation *During the years of independence, consistent reforms were carried out in the country aimed at establishing an electoral system based on democratic principles, ensuring the political rights and freedoms of citizens, and expanding public participation in state governance. This article provides a detailed analysis of the formation of electoral processes in the Republic of Uzbekistan after gaining independence, including the adoption of laws, decrees, and resolutions related to elections, as well as the development of political parties. Furthermore, the role of the principles of openness, transparency, and fairness in electoral processes and their importance in the development of civil society are examined.*

Keywords *Electoral codes, organization of free and democratic elections, electoral legislation, election campaigns, deputies, political parties, candidates in elections, candidates' programs*

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda xalqaro huquq andozalari va talablariga, ilg'or chet el yuridik tajribasiga va milliy-tarixiy an'analariga va o'z Konstitutsiyasiga mos saylov qonunchilik tizimi yaratildi.

Bugungi kunda dunyoda fuqarolarning saylov huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, erkin va demokratik saylovlarni tashkil qilish va o'tkazish to'g'risida 30 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Ushbu hujjatlarning aksariyat qoidalari va tamoyillari O'zbekiston Respublikasining milliy saylov qonunchiligida to'liq aks etgan (Rustamboyev, 2007).

O'zbekiston saylov qonunchiligini chet davlatlar saylov qonunchiligidan farqli tomoni, bizning milliy qonunchiligimizda xorijdan ajralib turuvchi – xalqimiz an'anaviy qadriyatlari va mentalitetini ifoda etadigan bir qator xususiyatlar mavjudligidadir.

Saylov qonunchiligi va kampaniyalari O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning uzviy tarkibiy qismidir. O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgan kundan boshlab ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan totalitarizmdan demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati sari dadil qadamlar bilan oldinga intilmoqda. Saylov qonunchiligi va amaliyoti O'zbekistonda amalga oshirilgan islohotlarning

asosiy tamoyillari sifatida quyidagilarda o'z aksini topadi:

- birinchidan, islohotlar davlatning milliy manfaatlariga mosligi, ya'ni mustaqillikni himoya qilishga qaratilganligi;
- ikkinchidan, islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirilayotganligi; uchinchidan, demokratik o'zgarishlar darajasining xalq ruxiyatiga,
- mentalitetiga mosligi;
- to'rtinchidan, tarixiy milliy tajribaga tayanish;
- beshinchidan, xalqaro huquq andozalari va talablarini e'tiborga olish.

Bu saylov qonunchiligining asosiy maqsadi samarali, ishchan vakillik organlarini saylash va yuksak fuqarolik siyosiy va huquqiy madaniyatli saylovchilarni shakllantirishdir.

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng saylov qonunchiligi taraqqiyotida to'rtta asosiy bosqichni ko'rsatish mumkin.

Birinchi bosqich Konstitutsiya qabul qilinishidan (1992 yil dekabr) mustaqil O'zbekistonning birinchi milliy parlamenti – ko'p partiyaviylik asosida Oliy Majlisning amalda shakllanganicha (1995 yil yanvar) bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Ushbu bosqichda 1993 yil 28 dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Oliy

Majlisiga saylovlar to'g'risida"gi (1994) birinchi qonunmamlakatda yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy vaziyatni hisobga olgan holda, islohotlarning o'sha bosqichida imkon qadar dunyoda mavjud umume'tirof etilgan ko'ppartiyaviylikka asoslangan saylovlarni tashkil etish tajribasini o'zida aks ettirdi. Aynan shu bosqichda – 1994 yil 5 mayda yana bir muhim hujjat – "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonun (1994) qabul qilindi. Bu esa O'zbekiston ixtiyoriy ravishda, hech qanday shart va istisnalarsiz qo'shilgan jahon hamjamiyati oldida tegishli majburiyatlarni o'z zimmasiga olgan inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquqiy hujjatlarda qayd etilgan standartlarga mos ravishda saylovchilarning saylov huquqini asoslab berdi.

1994 yilda parlament saylovlari yakunlariga ko'ra Birinchi chaqiriq Oliy Majlis tarkibida ikkita siyosiy partiya o'z fraksiyalari asosida faoliyat olib bordilar. Bu partiyalar vakillari parlamentda va davlat hokimiyatining mahalliy vakillik organlarida ko'pchilikni tashkil etdi.

Ikkinchi bosqich 1995-2000 yillarni o'z ichiga olib, saylov tizimining demokratik asoslarini mustahkamlash va saylovlar to'g'risidagi qonunlarga tegishli o'zgartirishlar kiritish bo'yicha bir qancha amaliy ishlar amalga oshirildi.

Xususan, doimiy faoliyat ko'rsatuvchi mustaqil organ "Markaziy saylov komissiyasini tuzish haqida" qonun (1994) qabul qilindi va O'zbekiston tarixida ilk bor O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tuzildi.

Shu bilan bir qatorda bu davrning o'ziga xos tomonlaridan, deputatlikka mustaqil nomzodlarni ilgari surishning aniq mexanizmi ishlab chiqildi va saylovlar to'g'risidagi qonunlardan rasman "besh foizlik to'siq" haqidagi qoida chiqarib tashlandi.

1999 yil 19 avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar hamda xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlar to'g'risidagi

qonunlarga bir qator jiddiy o'zgartirishlar, xususan umume'tirof etilgan tamoyillar kiritildi.

1999 yilga parlament saylovlari uchun 1996 yilning 26 dekabrda qabul qilingan "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi qonuni(1996) yangi huquqiy maydon yaratdi. Buning natijasida siyosiy partiyalarda Oliy Majlisda o'z siyosatini uyushgan holda o'tkazish uchun parlament fraksiyalarini tuzishdek qonuniy aniq tus olgan maqsadlari paydo bo'ldi. Davlatga qarashli OAV dan foydalanishda teng huquqlilikni ta'minlash darajasi ortdi. Bu "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi Qonuni, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi Qonuni, "Xalq duputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to'g'risida"gi Qonunlarining "Saylovoldi tashviquoti" nomli boblarida o'z aksini topdi.

1999 yilgi parlament saylovlaridan oldin beshta partiya ro'yxatdan o'tdi. Ko'pchilik ekspertlarning fikriga ko'ra, siyosiy partiyalar tomonida ilgari surilgan nomzodlar sonining ko'pligi mamlakat parlamentida ham partiyalar vakillarining umumiy soni shunga mos ravishda ortadi deb tahmin qilingandi. Biroq siyosiy partiyalarning saylovlarga tayyorgarliklarining bo'shligi, saylovoldi dasturlaridagi ko'pgina bandlar hayotdan uzoqligi, ular o'rtasidagi tafovutning kamligi hamda nomzodlar o'z partiyalari nuqtai nazarini yetarlicha asoslay olmasliklari Oliy Majlis tarkibida partiyalar vakillarining kamayishiga olib keldi (Saidov, 2005). Natijada bu o'rinlarga fuqarolar tashabbuskor guruhlarining vakillari kelishdi.

Uchinchi bosqich ikki palatali Oliy Majlis tizimining joriy etilishi bilan bog'liqdir. 2002 yil 27 yanvar kuni o'tkazilgan referendum yakunlariga ko'ra Oliy Majlis o'rnida ikki palatali (bikemeral) parlament o'z ishini boshladi. Bu davrning o'ziga xos jihati shundan iboratki, ko'pchilik demokratiya keng tarqalgan davlatlardagidek O'zbekiston Respublikasi Parlamenti ham professionallashib, qonun ijodkorligi va

boshqa vazifalarni bajarishi yangi bosqichga ko'tarildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida saylanadigan 120 deputatdan iboratligi belgilandi (O'z.Res.Konstitutsiyasi, 2008). Oliy Majlis yuqori palatasi – Senat, hududiy vakillik palatasi bo'lib, senatorlar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat, tuman va shaharlar davlat xokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma madlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan 6 kishidan saylanadi. Senatning 16 nafar a'zosi esa fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida faoliyat yuritayotgan eng obro'li odamlar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanishi² ham aksini topdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida ta'kidlanganidek, "ilk bor ikki palatali parlamentga bo'lib o'tgan saylovlar O'zbekistonning yangi tarixida alohida, g'oyat muhim o'rin egalladi" (O'z.Res.Konstitutsiyasi, 2008).

Qolaversa, aynan bu davrda kuchga kirgan, ya'ni 2007 yil 11 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun katta o'rin egallaydi. Konstitutsiyaviy Qonunning maqsadiga davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirishni maqsad qilib qo'ygan bo'lib, bunda davlat hokimiyati organlarining shakllantirilishi, joylarda mahalliy davlat hokimiyati organlarining faoliyat yuritishi, qonun chiqaruvchi organlarda hujjatlarining qabul qilinishi, joylarda ijtimoiy, siyosiy, huquqiy masalalarni hal etishda siyosiy partiyalarning ta'sirchanligini kuchaytirish va

ular faoliyatining samaradorligini oshirishni tushunish mumkin. Yana bir ahamiyatli jihat, bu siyosiy partiyalar faoliyatida muxolifat tushunchasining kiritilishi bilan bog'liqdir.

To'rtinchi bosqich 2008 yil 4 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o'n oltinchi yalpi majlisida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan "Saylov to'g'risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni ma'qullanib, 2009 yilgi parlament saylovlarida amalda foydalaniladi. Ushbu Qonunga muvofiq, Qonunchilik palatasidagi deputatlik o'rinlari soni 120 tadan 150 taga oshdi. Shu bilan birga 135 nafar depugat xududiy bir mandatli saylov okruglaridan ko'ppartiyaviylik asosida saylanadi. Shu tariqa respublikadagi saylov okruglar soni 120 tadan 135 tagacha ko'paytirilishi belgilandi. 15 nafar deputat esa atrof-muhitni asrash, tabiatni muhofaza qilish, buni huquqiy jihatdan ustuvor bilib, O'zbekiston ekologik harakatidan saylanadi.

Mazkur Qonunga kiritilgan o'zgartishlar saylovchilar imzosini to'plash haqidagi talablarni ellik ming imzodan qirq ming imzoga tushirish yo'li bilan siyosiy partiyalarning Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovda ishtirok etish imkoniyati kengaytirilishini ta'minlaydi. Siyosiy partiyalar saylovda faol ishtirok etishi uchun ko'proq imkoniyat yaratish maqsadida saylovda ishtirok etishni mo'ljallayotgan partiya O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatga olinishi kerak bo'lgan muddat qisqartirilib, u saylov kampaniyasi boshlanganligi e'lon qilingan kundan kamida olti oy o'rniga kamida to'rt oy deb belgilandi.

"O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi, "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Oliy

Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to'g'risida"gi qonunlarga, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonunga va boshqa qonunlarga kiritilgan o'zgartishlarda saylovchilar tashabbuskor guruhlarining saylovda ishtirok etishi, shu jumladan, bunday tashabbuskor guruhlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga, Qonunchilik palatasi depugatligiga, shu- ningdek, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari depugatligiga nomzodlar kursatish instituti tugatildi (Karimov, 2005). Saylov tizimini va saylov to'g'risidagi qonunlarini yanada liberallashtirish va demokratlashtirish maqsadida "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi qonunga "Siyosiy partiyaning vakolatli vakili" deb nomlangan alohida 17-modda kiritildi. Bu vakolatli vakillar saylov chastkasida ovozlarni sanab chiqishda ishtirok etish, imzo varaqalarining to'g'ri to'ldirilganligi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan tekshirilishi jarayonida qatnashishi mumkin. Saylovchilarning yig'ilishlari uchastka saylov komissiyalari tomonidan tashkil etiladi, degan qoida yangi tahrirda "Saylovchilarning yig'ilishlari siyosiy partiyalar tomonidan mustaqil ravishda o'tkaziladi. Saylovchilarning

yig'ilishlari o'tkaziladigan joy va vaqti, qoida tariqasida, uchastka saylov komissiyalari bilan kelishib olinadi", degan norma bilan almashtirildi.

O'zbekiston Respublikasida saylov jarayonlarining shakllanish bosqichlari mamlakatning mustaqillik yillarida olib borilgan siyosiy, huquqiy va institutsional islohotlar bilan chambarchas bog'liqdir. Mustaqillikdan so'ng saylov tizimi demokratik tamoyillarga asoslangan holda bosqichma-bosqich rivojlantirildi, bunda xalqaro standartlarga mos ravishda saylov kodekslari va qonunchilik bazasi shakllantirildi. Ushbu jarayonlarda siyosiy partiyalarning faoliyati kengayib, fuqarolarning siyosiy huquq va erkinliklarini ta'minlashning huquqiy kafolatlari yaratildi. Saylov jarayonida oshkoralik, adolat va ochiqlik prinsiplari mustahkamlandi, bu esa fuqarolik jamiyatining shakllanishi va demokratik davlat qurilishi uchun muhim shart-sharoitlarni yaratdi.

Shunday qilib, O'zbekistonda saylov tizimining shakllanishi mamlakat siyosiy tarixida muhim davrni tashkil etib, demokratik boshqaruvning barqaror mexanizmlarini shakllantirishda, fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirishda va huquqiy davlat asoslarini mustahkamlashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov, D., & Hamidova, K. (2009, January 17). Мутахассис минбари. Ўзбекистон овози.
2. Karimov, I. A. (2005). Бизнинг бош мақсадимиз – Жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишдир. Тошкент: Ўзбекистон.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2008). Тошкент: Ўзбекистон.
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida Qonun. (1994). Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномаси, 5–6, 95-модда.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida Qonun. (1994). Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномаси, 1, 6-модда.
6. O'zbekiston Respublikasi siyosiy partiyalar to'g'risida Qonun. (1996). Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномаси, 5, 36-модда.
7. O'zbekiston Respublikasi fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida Qonun. (1994). Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномаси, 5, 127-модда.

8. Rustamboyev, M. (2007). Сайлов тизими: демократлаштиришнинг муҳим босқичи. Фуқаролик жамияти, 4(12), 18.
9. Saidov, A. (2005). Ўзбекистон Республикасининг конституцияси ва сайлов тизими. Тошкент: ТДЮИ.

O'zbekiston mustaqillik yillarida tarix sohasida mutaxassislar tayyorlash jarayoniga Samarqand davlat universitetining qo'shayotgan munosib hissasi

Tursunov Xurshid
kh.tursunov@gmail.com
Tayanch doktorant,
Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya *Mazkur maqolada, mustaqillik yillarida Samarqand davlat universitetida tarixchilarni tayyorlash jarayoni va undagi o'zgarishlar tahlil qilinadi. Maqolada, mustaqillikdan so'ng universitetda tarixshunoslik ta'limining yangilanishi, yangi o'quv dasturlari, ilmiy metodologiyalar va pedagogik yondashuvlarning joriy qilinishi haqida so'z boradi. Shuningdek, tarix fani bo'yicha zamonaviy tadqiqot usullari, arxiv ishlari va xalqaro ilmiy aloqalarning ahamiyati ta'kidlanadi. Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti talabalariga ilmiy tadqiqotlar olib borish, tarixiy manbalar bilan ishlash kabi amaliy ko'nikmalarni berishga alohida e'tibor qaratganligi ko'rsatilgan. Maqola tarixchi kadrlar tayyorlash jarayonidagi muvaffaqiyatlarni va kelajak istiqbollarini o'rganadi.*

Kalit so'zlar *Samarqand davlat universiteti, tarixchilar tayyorlash, tarixshunoslik, ilmiy tadqiqotlar, pedagogik metodologiyalar, milliy tarix, xalqaro aloqalar, tarixiy manbalar, arxiv ishlari, o'quv dasturlari, tarix fakulteti, ta'lim islohotlari*

Вклад Самаркандского государственного университета в подготовку специалистов в области истории в годы независимости Узбекистана

Турсунов Хуршид
kh.tursunov@gmail.com
соискатель степени доктора
философии (PhD),
Каршинский государственный
университет

Аннотация *В данной статье анализируется процесс подготовки историков в Самаркандском государственном университете в годы независимости и изменения, произошедшие в этом направлении. Рассматривается обновление исторического образования в университете после обретения независимости, внедрение новых учебных программ, научных методологий и педагогических подходов. Особое внимание уделено современным методам исторических исследований, архивной работе и значению международных научных связей. Подчеркивается, что исторический факультет Самаркандского государственного университета уделяет особое внимание формированию у студентов практических навыков проведения научных исследований и работы с историческими источниками. В статье изучаются достижения в процессе подготовки кадров-историков, а также перспективы дальнейшего развития.*

Ключевые слова *Самаркандский государственный университет; подготовка историков; историография; научные исследования; педагогические методологии;*

национальная история; международные связи; исторические источники;
архивная работа; учебные программы; исторический факультет;
образовательные реформы

The contribution of Samarkand state university to the training of specialists in the field of history during the years of Uzbekistan's independence

Tursunov Khurshid
kh.tursunov@gmail.com
PhD researcher,
Karshi State University

Annotation *This article analyzes the process of training historians at Samarkand State University during the years of independence and the transformations that have taken place in this field. It discusses the renewal of historical education at the university after independence, the introduction of new curricula, scientific methodologies, and pedagogical approaches. Particular attention is given to modern methods of historical research, archival studies, and the importance of international academic cooperation. The article emphasizes that the Faculty of History at Samarkand State University has focused on equipping students with practical skills in conducting research and working with historical sources. The study also explores the achievements in the training of historians as well as the prospects for future development.*

Keywords *Samarkand State University; training historians; historiography; scientific research; pedagogical methodologies; national history; international cooperation; historical sources; archival work; curricula; Faculty of History; educational reforms*

Kirish

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng ta'lim tizimida, xususan, tarix sohasi bo'yicha mutaxassislar tayyorlash jarayonida tub islohotlar amalga oshirildi. Milliy ta'lim paradigmasining yangilanishi, tarixiy bilimlarni shakllantirishda zamonaviy metodologik yondashuvlarning joriy qilinishi hamda xalqaro akademik hamkorlikning kengayishi bu jarayonning asosiy yo'nalishlaridan bo'ldi.

Samarqand davlat universiteti mazkur o'zgarishlarning markazida turib, tarix sohasi bo'yicha yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda yetakchi ilmiy-ma'rifiy markazlardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Universitetning tarix fakultetida o'quv dasturlarining modernizatsiyasi, tarixiy manbalarni tanqidiy tahlil qilish, arxivshunoslik va tarixshunoslik metodlarini chuqur o'rganish, shuningdek, interdisiplinar yondashuvlarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish orqali talabalarning ilmiy va amaliy salohiyatini yuksaltirishga alohida e'tibor qaratildi.

Shu bilan birga, mustaqillik yillarida Samarqand davlat universitetida tarixiy tadqiqotlarning metodologik asoslari, milliy tarix konsepsiyalarining shakllanishi, xalqaro ilmiy hamkorlikning rivojlanishi hamda tarixchi kadrlar tayyorlashdagi samaradorlik davlat ta'lim siyosati va milliy taraqqiyot strategiyasi bilan uyg'un holda shakllandi.

Demak, mustaqillik davrida Samarqand davlat universitetining tarix sohasi bo'yicha mutaxassislar tayyorlash jarayoniga qo'shgan hissasini o'rganish nafaqat oliy ta'lim tizimidagi o'zgarishlarni, balki O'zbekiston tarixshunosligining taraqqiyot dinamikasini ham ochib beradi.

Samarqand davlat universiteti O'zbekistonning eng qadimiy va yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan biri sifatida, mustaqillik yillarida o'z ta'lim tizimini rivojlantirishda, ayniqsa tarixchilarni tayyorlash jarayonida katta yutuqlarga erishdi. Mustaqillikdan so'ng, O'zbekistonning tarixiy va madaniy merosini chuqur o'rganish, xalqning tarixiy o'zligini saqlash va rivojlantirish maqsadida, Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti milliy tarixni o'rganish va ilmiy tadqiqotlarni olib borish bo'yicha katta tashabbuslarni amalga oshirdi(Tursunov, 2024).

Tadqiqot metodologiyasi

Samarqand davlat universiteti tarix fakultetida bugungi kunda tarix, arxeologiya, tarix o'qitish metodikasi yo'nalishlari bo'yicha bakalavr, tarix, arxeologiya, etnogenez mutaxassisliklari bo'yicha magistratura, O'zbekiston tarixi, Arxeologiya, Jahon tarixi, Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari tayanch doktorantura (PhD) ixtisosliklari bo'yicha oliy malakali kadrlar tayyorlanmoqda. Fakultetda jami 57 nafar professor-o'qituvchi faoliyat olib bormoqda(Istiqolol va SamDU).

Tarix fakultetida Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12. 2019. Tar.02.10 raqamli Ilmiy Kengash faoliyat ko'rsatadi. Fakultetning 9 nafar olimi ushbu Kengash a'zosi.

Fakultetda 5120300 – "Tarix (jahon mamlakatlari bo'yicha)", 5120400 – "Arxeologiya", 5110600 – "Tarix o'qitish metodikasi" yo'nalishlari bo'yicha bakalavr, 5A120401 – Arxeologiya, 5A 120301 – O'zbekiston tarixi, 5A 120302 – Tarix (yo'nalishlar va mamlakatlar bo'yicha), 5A120304 – Tarixshunoslik, manbashunoslik tarixi tadqiqotlar metodlari, 5A120402 –

Etnografiya, etnologiya va antropologiya mutaxassisliklari bo'yicha magistrantlar hamda 4 ta ixtisoslik bo'yicha 07.00.01 – O'zbekiston tarixi, 07.00.05 – Arxeologiya, 07.00.03 – Jahon tarixi, 07.00.08 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari tayanch doktorantura (PhD) ixtisosliklari bo'yicha oliy malakali kadrlar tayyorlanmoqda(Samarqand davlat universiteti joriy arxivi ma'lumotlari).

Tarix fakultetida O'zbekiston tarixi, Arxeologiya, Jahon tarixi, Tarixshunoslik va Manbashunoslik kafedralari mavjud bo'lib, ularda 8 ta fan doktori, professor, 18 ta fan nomzodi, dotsent, 42 ta katta o'qituvchi va assistentlardan iborat bo'lgan tajribali professor o'qituvchilar jamoasi faoliyat ko'rsatmoqda. Fakultetda 1173 nafar bakalavr, magistr tahsil olishmoqda. 2020-2021-o'quv yilida 196 ta bakalavr o'qishni tugatib, ulardan 130 nafari xalq ta'limida, 14 nafari KHK da, 6 nafari litseyda, 8 nafari fermer xo'jaligida, 14 nafari xizmat ko'rsatish sohasida, 8 nafari ishlab chiqarish yo'nalishida, 6 nafari mahalla fuqoralar yig'inida, 4 nafari ijro boshqaruv tashkilotlarida, 6 nafari Viloyat IIB da ishlamoqda, 5 nafari magistratura ta'limida tahsil olmaqda, 3 nafari onalik ta'tilida hisoblanadi(Samarqand davlat universiteti joriy arxivi ma'lumotlari).

Tahlil va natijalar

Fakultetda oxirgi 10 yil mobaynida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendiyasi va 10 nafar talaba Alisher Navoiy, Amir Temur va Yahyo G'ulomov davlat stipendiyasi sovrindorlari bo'lishgan va ulardan 3 nafari hozirgi kunda fakultetda faoliyat olib bormoqda(Istiqolol va SamDU).

Professor M.Abramov (1994) – "Do'stlik" va "Shuhrat" davlat ordeni, professor M.Jo'raqulov «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi», «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi» unvonlari, PhD Hamroqulova Shohista "Shuhrat" medali sohibi hisoblanadi(Samarqand davlat universiteti joriy arxivi ma'lumotlari).

Fakultetda xalqaro hamkorlik doirasida amalga oshirilayotgan ishlar ham salmoqli. Jumladan, hozirgi kunda imzolangan shartnomalar doirasida Moskva, Sankt-Peterburg, Tomsk, Samara (Rossiya Federatsiyasi), Insubriya, Bolonya (Italiya), Bamberg, Olmon arxeologiya instituti (Germaniya), Leyden (Gollandiya), Nagoya (Yaponiya) va boshqa nufuzli oliy ta'lim muassasalari bilan ilmiy-amaliy hamkorlik qilib kelishmoqda: o'tgan davr mobaynida almashinuv dasturi doirasida professor-o'qituvchilar va talabalar almashinuvi va malaka kurslarida o'qish, bakalavriat va magistratura yo'nalishlari bo'yicha tahsilni davom ettirishmoqda: Xitoy Xalq respublikasidan 7 nafar talaba, Janubiy Koreya davlatidan 1 nafar talaba tahsil olishayotgan bo'lsa, Janubiy Koreyalik magistrant va doktorant arxeologiya, hindistonlik doktorant manbashunoslik va tarixshunoslik ixtisosligida, Turkmaniston Respublikasidan 2 nafar bakalavr talaba tarix yo'nalishida tahsil olishmoqda. Shuningdek, "Arxeologiya" kafedrasida Germaniyaning Yevrosiyo bo'limi bilan hamkorlikda "O'zbek-Germaniya arxeologik ekspeditsiyasini tashkil etish va Zarafshon vohasida razvedka ishlarini olib borish" bo'yicha imzolangan shartnoma doirasida Qo'shrabot tumanining Toz, Jonbuloq, Urganji qishloqlari atroflarida arxeologik qidiruv ishlari olib borildi (*Istiqlol va SamDU*).

Fakultet professor-o'qituvchilari Niderlandiya, Ispaniya, Rossiya kabi davlatlarning oliy o'quv yurtlarida ma'ro'zalar bilan qatnashib kelishmoqda.

Fakultetda falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi PhD. 31.01.2019.Tar.02.10 raqamli 07.00.01 – O'zbekiston tarixi ixtisosligi bo'yicha Ilmiy kengash faoliyat ko'rsatmoqda.

2017-yili fakultetning "Ulug'bek vorislari" jamoasi tafakkur sinovlari respublika tanlovining mintaqaviy g'olibi bo'lishdi.

5120300 – Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha), 5120400 – Arxeologiya, 5110600 – Tarix o'qitish metodikasi bakalavriat

yo'nalishi bo'yicha mutaxassislar tayyorlanadi.

5A120301 – O'zbekiston tarixi, 5A120302 – Tarix (yo'nalishlar va mamlakatlar bo'yicha), 5A120304 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari (mamlakatlar bo'yicha), 5A120401 – Arxeologiya, 5A120402 – Etnografiya, etnologiya va antropologiya mutaxassisliklar bo'yicha magistrlar tayyorlanadi (Samarqand davlat universiteti joriy arxivi ma'lumotlari).

Samarqand davlat universiteti "O'zbekiston tarixi" kafedrasida 1994-2005 yillarda esa «Vatan tarixi» kafedrasida nomi bilan yuritildi. 2005-yildan "Vatan tarixi" kafedrasiga fakultetlararo «O'zbekiston tarixi» kafedrasiga qo'shilgach, hozirgi nomini olib faoliyat ko'rsatmoqda. 2021 yildan t.f.d., dots. G.B. Normurodova boshqarib kelmoqda.

"O'zbekiston tarixi" kafedrasida universitet va fakultetda yetakchi ilmiy-pedagogik jamoalardan hisoblanadi. Hozirgi paytda kafedrada 4 nafar fan doktoridan 2 ta professor va 2 ta dotsent, 4 nafar fan nomzodi, dotsent, 4 ta PhD, 1 nafar katta o'qituvchi, 6 nafar o'qituvchilar samarali mehnat qilishmoqda. Professor, tarix fanlari doktorlari Sh.S. G'afforov, F.H. Nabiyevlar, tarix fanlari doktorlari, dotsent G.B. Normurodova, B.S. G'oyibovlar, tarix fanlari nomzodlari, dotsentlar: R.SH Xoliqulov, M.I Nasrullayev, K. G'aniyev, J.B. Vafayeva, PhD lar: S.A. Djumanov, F.A. Narmonov, Z.J. Akbayeva, D. Haydarovlar, katta o'qituvchi: B.E. Raximov, Assistentlar: Mamarasulov D.T, Hasanova Sh.H, Yakubjonov N.Q., Qo'shbaqov H.A., J.R. Turdialiyev, A. Xoliqulov kabi pedagoglar universitetning barcha fakultetlarida xizmat ko'rsatishib, ma'ruzalar o'qib, seminar mashg'ulotlar o'tkazib kelishmoqda (Tursunov, 2024).

Jahon tarixi kafedrasida Samarqand davlat universitetining to'ng'ich kafedralaridan biri. U 1927 yilda tashkil etilgan Oliy pedagogika instituti tarkibidagi dastlabki 12 kafedraning biri, universitet tengdoshi hisoblanadi. 2018 yildan hozirgacha PhD. Sh.SH. Hamroqulova

kafedra mudiri sifatida faoliyat oli bormoqda (Tursunov, 2024).

Xulosa

Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan biri hisoblanib, tarixchi mutaxassislar tayyorlashda oldingi o'rinlarda turadi.

Mustaqillik yillarida Samarqand davlat universiteti tarixchi kadrlar tayyorlashda katta yutuqlarga erishdi. Universitetda joriy etilgan yangi ilmiy metodologiyalar, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va xalqaro aloqalar, talabalar va o'qituvchilar uchun tarixshunoslikda yuqori sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratdi. Tarixni ilmiy asosda o'rganish va zamonaviy metodologiyalarni qo'llash, shuningdek, tarixiy tadqiqotlar olib borish, arxiv ishlari bilan shug'ullanish kabi ko'nikmalar talabalarga berildi. Samarqand davlat universiteti, kelajakda ham tarixshunoslikni yanada rivojlantirish va xalqaro ilmiy aloqalar orqali tarixchi kadrlarni tayyorlashda o'z faoliyatini davom ettiradi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng tarix sohasi bo'yicha mutaxassislar tayyorlash tizimi tubdan yangilandi va bu jarayonda Samarqand davlat universiteti muhim ilmiy-ma'rifiy markaz sifatida alohida o'rin egalladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, universitetda amalga oshirilgan ta'lim islohotlari o'quv dasturlarining

modernizatsiyasi, yangi pedagogik metodologiyalarni joriy etish va tarixiy manbalar bilan ishlashda tanqidiy yondashuvni shakllantirish orqali ijobiy natijalar berdi.

Ilmiy tadqiqotlarda arxiv materiallari, tarixshunoslik nazariyalari hamda zamonaviy metodologik asoslarning qo'llanilishi talabalar va yosh olimlarning ilmiy salohiyatini sezilarli darajada oshirdi. Shuningdek, xalqaro hamkorlikning kengayishi natijasida talabalarning global ilmiy jarayonlarga integratsiyalashuvi ta'minlandi.

Samarqand davlat universitetining tarix sohasi bo'yicha mutaxassislar tayyorlash jarayonidagi faoliyati milliy tarix konsepsiyasini rivojlantirish, tarixiy xotirani mustahkamlash va ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarni ilmiy asosda talqin etishda muhim ilmiy-amaliy baza yaratdi. Bu jarayon, bir tomondan, milliy tarixshunoslikning nazariy-metodologik rivojlanishiga, ikkinchi tomondan esa, ilmiy kadrlar tayyorlash samaradorligining yuksalishiga xizmat qildi.

Umuman olganda, mustaqillik yillarida Samarqand davlat universiteti tarix sohasi bo'yicha mutaxassislar tayyorlashga qo'shgan hissasi O'zbekiston oliy ta'lim tizimi taraqqiyotining yorqin namunasi bo'lib, kelajakda tarixshunoslik fanining ilmiy-innovatsion salohiyatini yanada kengaytirishga xizmat qiladi.


Adabiyotlar ro'yxati:

1. Samarkand State University. (2017). Istiqlol va SamDU [Independence and SamSU]. Samarkand: SamDU Publishing.
2. Samarkand State University. (n.d.). Current archive data. *Samarkand State University*.
3. Samarkand State University. (n.d.). Current archive data. *Samarkand State University*.
4. Samarkand State University. (2017). Istiqlol va SamDU [Independence and SamSU]. Samarkand: SamDU Publishing.
5. Samarkand State University. (n.d.). Current archive data. *Samarkand State University*.
6. Samarkand State University. (2017). Istiqlol va SamDU [Independence and SamSU]. Samarkand: SamDU Publishing.
7. Samarkand State University. (n.d.). Current archive data. *Samarkand State University*.

8. Tursunov, K. N. (2023). O'zbekistonda tarixchi mutaxassislarni tayyorlash jarayoni tendensiyalari [Trends in the process of training historians in Uzbekistan]. *Ekonomika i sotsium*, 4(107), 283–286.
9. Tursunov, K. (2024). Voha sanoat tarixi bunyodkori, Qashqadaryo tarixchilarining zabardast vakili professor Obod Jo'raqulovning ilmiy merosi [The founder of the history of oasis industry and a prominent representative of Kashkadarya historians, Professor Obod Jo'raqulov's scientific heritage]. *UzMU xabarlari*, 1(1.3), 4043–4043.

CONTENTS

LINGUISTICS		4
Otaqulov N.B.	Subkollokvial frazeologik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlari	5
Shabanova S.D.	Gendered Reflections in Turkish Proverbs: Parental Roles and Child-Rearing	13
Зиядуллаев И.О.	Морфолого-семантические аспекты деонимических глаголов в немецком языке	21
Abdullayeva Sh.R.	Ontologik lug'atlar tuzishda leksikografik tamoyillarning ahamiyati: axborot texnologiyalari terminlari misolida	28
Normurodova S.	Code-switching and translanguaging on social media platforms: theoretical foundations and empirical insights from Uzbek context	35
Ataeva G.B.	A Systematic Approach to the Lexicographical Description and Functional Analysis of Idioms in English Business Communication: A Conceptual Framework from Dissertation Research	42
Baxronova D.; Uktamova K.	Metamadaniyat fenomeni madaniyatlararo muloqotning yangi ufqi sifatida	49
Rejapov I.O.	Cognitive and Cultural Functions of Numerical Symbolism	54
Samatboyeva M.T.	O'zbek tili korpusi matnlarini lingvistik izohlash	62
Sobirova Z.R.	Leksik sath va chegaralangan leksika: dialektizmlar, maxsus leksika va arxaizmlar (o'zbek va ingliz tillari misolida)	69
Muzaffarov J.Q.	Jon Tolkin asarlarida arxetiplar transformatsiyasi	75
Xoshimova N.A.	Gender communication barriers and violation of politeness maxims	80
METHODOLOGY		86
Рахманкулова Н.Х.	Педагогические возможности развития когнитивной компетентности будущих учителей на основе фасилитативного подхода	87
Кадирова Н.М.	Работа с текстом при обучении русскому языку	93
Anvarova U.J.	Nofilologik yo'nalish talabalariga chet tilini o'rgatishda raqamli platformalardan differensial foydalanish usullari	100
HISTORY		106
Boltabayev B.S.	O'zbekiston Respublikasida saylov jarayonlarini shakllanish bosqichlari	107
Tursunov X.	O'zbekiston mustaqillik yillarida tarix sohasida mutaxassislar tayyorlash jarayoniga Samarqand davlat universitetining qo'shayotgan munosib hissasi	113



VOLUME 8, AUGUST 2025
ISSN: 3060-4958

UZBEKISTAN STATE WORLD
LANGUAGES UNIVERSITY

